

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**NURMANOVA NAZIYRA KUDAYNAZAROVNA**

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QITUVCHILARINI INTEGRATIV  
MODULLI O‘QITISHGA METODIK TAYYORGARLIGINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences**

**Nurmanova Naziyra Kudaynazarovna**

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ modulli o'qitishga  
metodik tayyorgarligini takomillashtirish..... 3

**Нурманова Назийра Кудайназаровна**

Совершенствование методической подготовки будущих учителей  
начальных классов к интегративно-модульному обучению ..... 23

**Nurmanova Naziyra Kudaynazarovna**

Improving methodical preparation of future primary teachers for integrative  
module teaching ..... 45

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works..... 49

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**NURMANOVA NAZIYRA KUDAYNAZAROVNA**

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QITUVCHILARINI INTEGRATIV  
MODULLI O‘QITISHGA METODIK TAYYORGARLIGINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Ped4527 raqam bilan ruyxatga olingan.**

Dissertatsiya Nukus davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi – [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz) hamda “ZiyoNet” axborot – ta’lim portalida – [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Abdullayeva Barno Sayfutdinovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xaydarov Mamat Eshkulovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Raximkulova Maxbuba Baxronovna**  
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Farg‘ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli ilmiy kengashining 2025 yil “\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100185, Toshkent shahri Chilonzor tumani Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.:(99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-76-51, e-mail: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri Chilonzor tumani Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.:(99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-76-51.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “\_\_” \_\_\_\_\_ da tarqatildi.

(2025 yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi)

**Z. N.Mamarajabova**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi, p.f.d.,  
professor

**R.G.Isyanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash kotibi, p.f.n.,  
dotsent

**M.EMamarajabov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy seminar raisi, p.f.d.,  
professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini integrativ modulli metodik o‘qitishga tayyorgarligini takomillashtirishning kreativ texnologiyalari ta‘lim jarayoniga tatbiq etilmoqda. Xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha ta‘lim konsepsiyasida “Ta‘lim – taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlarga yetkazuvchi muhim faoliyat”<sup>1</sup> sifatida e‘tirof etilib raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning innovatsion yo‘nalishlari, o‘qitishning variativ shakllari, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini integrativ modulli o‘qitishga tayyorgarligini takomillashtirish mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta‘lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida talabalarni o‘quv jarayoniga faol jalb qilish orqali ularni intensiv rivojlantirish, o‘qituvchining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda turli xil ta‘lim texnologiyalaridan foydalanishga tayyorligini takomillashtirish, innovatsion o‘qitish texnologiyalari vositasida o‘quv materialini talabalar tomonidan muvaffaqiyatli o‘zlashtirishni ta‘minlashni tashkil etish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, oliy ta‘lim muassasasi talabalarining o‘zini o‘zi anglashi, o‘zini o‘zi rivojlantirishiga yordam berishini ta‘minlashni talaba shaxsi tuzilishiga yo‘naltirib o‘rganish “hamkorlikda o‘qitish” xususiyatlarini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar ham olib borilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda zamonaviy ta‘lim texnologiyalarini o‘zlashtirgan va bolalarni o‘qitishning integrativ usullariga yo‘naltiruvchi o‘qituvchilar tayyorlash, talabaning o‘quv va kognitiv faoliyatini individual usullar bilan uyg‘unlashtirish, shaxsning o‘zini o‘zi rivojlantirish, talaba shaxsining ijodiy salohiyatini faollashtirish bo‘yicha meyoriy asoslari yaratilmoqda. “Uzluksiz ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta‘lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” «Uzluksiz ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta‘lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish»<sup>2</sup> ustuvor vazifalari sifatida belgilangan. Natijada, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini oliy ta‘lim muassasasida integrativ modulli o‘qitishga tayyorlashning maqbul yechimlarini topish va joriy qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish” konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020 yil 29 oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Farmonlari, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta‘lim

---

<sup>1</sup>Incheon Declaration / Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all. –p.4-5. <http://unesdoc.unesco.org/images/0023/002338/233813m.pdf>.

<sup>2</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son Farmoni.

tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari, 2017 yil 30 iyundagi PF-6017-son "O'zbekiston Respublikasida Yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi bo'yicha bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi. Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Respublikamizda B.C.Abdullaeva, U.Sh.Begimqulov, R.X.Djo'rayev, N.A.Muslimov, R.A.Mavlonova, G.A.Ne'matova, M.I.Toshpo'latovalar tomonidan ta'lim jarayonini integratsiyalashning psixologik-pedagogik jihatlar va ularning echimlari N.X.Adilov, N.M.Ahmedova, R.G.Isyanov, M.Q.Zaripova, M.T.Mirsoliyeva, Sh.O'.Nurullayeva, A.U.Rajabov, O'.Q.Tolipov, A.T.Toshxonov, O.A.Qo'ysinov, D.O.Ximmataliyev, X.A.Yulbarsovalar, tomonidan bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash masalalari tadqiq etilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligidan A.P.Belyaeva, R.S.Bekirova, G.V.Bukalova, N.I.Vyunova, G.G.Kagarmanova, T.N.Litvinova, N.B.Lavrenteva, A.N.Lastochkin, E.F.Nasirova, L.N.Ponomareva, N.F. Talizina, A.A.Ushakov, L.M.Fedoryak, B.M.Shabarshin integrativ modulli o'qitish imkoniyatlari; S.K.Abdulina, V.A.Adolf, E.A.Vlasova, I.M.Bogdanova, R.V.Demyanchuk, E.K.Dvoryankina, T.A.Dmitrenko, E.F.Zeer, T.A.Kryuchkova, V.V.Litvinenko, A.M.Leontev, O.N.Lazareva, O.I.Mezenseva, V.D.Shadrikov tomonidan bo'lajak o'qituvchilarning o'qitishga doir kasbiy faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Bo'lajak o'qituvchilarni integrativ modulli o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish bilan bog'liq masalalar Amanda Benedict-Chambers, Tom Peters, Patrick Griffin, J.Andrade Mario, J.Andrew Medina, Denise M. Hoge, Karamanos Xanthy, Robert White, Faizulizami Osmin, Susan Elizabeth Lee, Chantea R. Wright, W.Kouwenhoven, Hutmacher Walo, D.Raven, Noam Chomsky tomonidan tadqiq qilingan.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning 1."Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy- ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ modulli o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishga doir tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini integrativ modulli o'qitishga tayyorlashning didaktik imkoniyatlarini aniqlash;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining integrativ modulli o'qitishga metodik rivojlantirish modelini takomillashtirish;

oliy ta'lim muassasasida integrativ modulli o'qitishga metodik tayyorgarligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining oliy ta'lim muassasasida integrativ modulli o'qitishga tayyorgarligining metodikasini samaradorligini aniqlashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ modulli o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga O'zbekiston milliy pedagogika universiteti, Nukus davlat pedagogika insituti, Qo'qon davlat pedagogika institutlarining 346 nafar respondent-talabalari ishtirok etgan.

**Tadqiqotning predmetini** bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini integrativ modulli o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Ishda tadqiqot usullari va uslublar tizimi qo'llanildi, ular orasida quyidagilar faol foydalanilgan: falsafiy, psixologik va pedagogik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish va umumlashtirish; modelashtirish, kuzatish, so'roq qilish, test qilish; o'quv eksperimenti davomida talabalar faoliyati natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish; ekspert baholash usuli; tadqiqot materiallarini qayta ishlashning statistik va grafik usullari.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini integrativ modulli o'qitishga tayyorlashning didaktik imkoniyatlari tushunchalar semantikasini va fanlararo aloqadorlikni assotsiativ izohlash hamda mantiqiy tafakkur va faoliyatli-kasbiy ko'nikma yaxligini bosqishma bosqish ta'minlash asosida aniqlashtirilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini metodik rivojlantirish modeli motivatsion va ijodiy muhit, o'quv metodik taminotni rivojlantirishga yo'naltirilgan mazmuniy, konseptual-faoliyatli, integrativ jarayonli komponentlar, baholash mezonlarini integrallash bosqishlariga muvofiqlashtirish orqali takomillashtirilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining integrativ modulli o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish jarayoni bilish faoliyatini kengaytirish, shaxsiy intellektual salohiyatini, mantiqiy-tanqidiy tahlil qilish kompetensiyalarini mos yaxlitlash hamda tashxis qilish mahoratini va uni tatbiq qilish usullarini didaktik maqsadlarda belgilangan kasbiy ko'nikmalarining qo'llash asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining integrativ modulli o'qitishga metodik tayyorlash samaradorligi ishni rejalashtirish, kerakli materialni tanlash va uni blok-modullarga loyihalash hamda talabalarining o'zini o'zi rivojlantirilishga qaratilgan mustaqil ishlarini rag'batlashtirishda geymofikatsiya elementlarini kiritish asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilarda o'z aksini topgan:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ modulli o'qitishga metodik tayyorgarligi takomillashtirilganligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari aniqlashtirilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ modulli o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishga doir uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo'llanilgan yondashuv, usullar ilmiy-metodik asoslanganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilgari surilgan nazariy xulosalar, tavsiyalar oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash sifatini mazmunan boyitishga, integrativ modulli o'qitishga tayyorgarligini takomillashtirishning qulay shart-sharoitlari, mexanizmlarining ishlab chiqilganligi, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining integrativ modulli o'qitishga tayyorgarligini takomillashtirishni didaktik mazmunining ilmiy-nazariy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, uning natijalari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining oliy ta'lim muassasasida integrativ modulli o'qitishga tayyorgarligini takomillashtirish asosida tashxis qo'yish jarayonini loyihalash va amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, eksperimental sinovdan o'tkazish, integrativ modulli o'qitishning konseptual modeli, texnologiyasi va psixologik-pedagogik tuzilmasini ishlab chiqish va modernizatsiya qilishda qo'llanilishi mumkin..

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ modulli o'qitishga tayyorgarligini takomillashtirishga doir tadqiqot natijalari asosida:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini integrativ modulli o'qitishga tayyorlashning didaktik imkoniyatlari tushunchalar semantikasini va fanlararo aloqadorlikni assotsiativ izohlash hamda mantiqiy tafakkur va faoliyatli-kasbiy ko'nikma yaxligini bosqishma bosqish ta'minlash asosida aniqlashga oid takliflar "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025- yil 20-maydagi 11-05-3263/04 sonli dalolatnomasi). Natijada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini integrativ modulli o'qitishga tayyorlashning didaktik imkoniyatlarini aniqlashga erishilgan.

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini metodik rivojlantirish modeli motivatsion va ijodiy muhit, o'quv metodik ta'minotni rivojlantirishga yo'naltirilgan mazmuniy, konseptual-faoliyatli, integrativ jarayonli komponentlar, baholash mezonlarini integrallash bosqishlariga muvofiqlashtirish orqali takomillashtirishga oid tavsiyalar "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025- yil 20-maydagi 11-05-3263/04 sonli dalolatnomasi). Natijada boshlang'ich sinf o'qituvchisini integrativ modulli o'qitishga tayyorligini rivojlantirish modelini takomillashtirishga sharoit yaratilgan.

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining integrativ modulli o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish jarayoni bilish faoliyatini kengaytirish, shaxsiy intellektual salohiyatini, mantiqiy-tanqidiy tahlil qilish kompetensiyalarini mos yaxlitlash hamda tashxis qilish mahoratini va uni tatbiq qilish usullarini didaktik maqsadlarda belgilangan kasbiy ko'nikmalarining qo'llash asosida takomillashtirishga oid xulosalar "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025- yil 20-maydagi 11-



05-3263/04 sonli dalolatnomasi). Natijada oliy ta'lim muassasasida integrativ modulli o'qitishga metodik tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi takomillashgan.

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining integrativ modulli o'qitishga metodik tayyorlash samaradorligi ishni rejalashtirish, kerakli materialni tanlash va uni blok-modullarga loyihalash hamda talabalarning o'zini o'zi rivojlantirilishga qaratilgan mustaqil ishlarini rag'batlashtirishda geymofikatsiya elementlarini kiritish asosida takomillashtirishga oid takliflar "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 20-maydagi 11-05-3263/04 sonli dalolatnomasi). Natijada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining oliy ta'lim muassasasida integrativ modulli o'qitishga tayyorgarligining metodikasini samaradorligi oshgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta respublika hamda 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, 150 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan; fan va texnologiyalarning ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan; tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obekti va predmeti aniqlangan; tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan; olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan; tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Oliy ta'lim muassasasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini integrativ modulli o'qitishga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ modulli o'qitishga metodik tayyorgarligini rivojlantirish pedagogik muomma sifatida, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ modulli o'qitishni amalga oshirishning faoliyatli xususiyatlari, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ modulli faoliyatga tayyorlashga quyiladigan metodik talablar bayon qilingan.

Modulli o'qitish – talaba motivatsion-rag'batlantiruvchi, maqsadli, axborot, o'quv maqsadlariga erishish uchun amaliy qo'llanma (operatsion), bilimlarni tekshirish moduli, reflektiv modullarni o'z ichiga olgan o'quv dasturi bilan ishlaydigan o'quv jarayonini tashkil etishdir. Bir qator xorijiy mualliflar (V.Goldschmidt, N.Goldschmidt va boshqalar) modulni aniq belgilangan maqsadlarga erishishga yordam beradigan mustaqil rejalashtirilgan ta'lim faoliyati birligini shakllantirish deb tushunadilar.

I.B.Sennovskiy modulni maqsadli funksional birlik sifatida belgilaydi, unda ta'lim mazmuni va uni o'zlashtirish texnologiyasi yuqori darajadagi yaxlitlik tizimiga birlashtiriladi. Modulni mazmuni, o'qitish usullari, mustaqillik darajasi, o'quvchilarning bilim olish sur'ati va bilish faolligi jihatidan individuallashtirilgan o'quv dasturi sifatida qarash mumkin.

T.I.Shamova va L.M.Perminova modulni o'qitish mazmuni va uni o'zlashtirish texnologiyasini birlashtirgan maqsadli funksional birlik sifatida belgilaydi. Bunda modul modulli o'qitish vositasi vazifasini bajaradi, chunki u maqsadli harakatlar rejasini, axborotlar uyg'unligini, didaktik maqsadlarga erishish uchun uslubiy qo'llanmani o'z ichiga oladi.

Dissertatsiya doirasida o'rganilgan ilmiy tadqiqot ishlarining tahlilidan ko'rinadiki, "modul" tushunchasi bir nechta talqinlarga ega. Xorij olimlari (P.C.Бекирова) ularni 3 yo'nalishda tizimlashtirishni taklif qiladi:

modul – malaka tavsifi talablariga javob beradigan o'quv fanlari to'plamini taqdim etadigan mutaxassislik bo'yicha davlat o'quv dasturining birligi sifatida;

modul – bir mutaxassislikni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan turli o'quv fanlaridan mavzular (bo'limlar) majmuini ifodalovchi va o'quv jarayonini fanlararo aloqadorlikni ta'minlovchi tashkiliy-uslubiy fanlararo tuzilma sifatida;

modul – bitta o'quv fanining tashkiliy-uslubiy tarkibiy bo'linmasi sifatida.

Shunday qilib, zamonaviy pedagogikada "modul" toifasiga turlicha nazariy yondashuvlarning mavjudligi "modul" tushunchasi o'zining muhim negizlarida o'zgarishlarga uchrab, shakl tushunchasidan uni bir necha shakllarda pedagogik hodisa sifatida baholashga o'tayotganini ko'rsatadi. Modul o'quv ma'lumotlarining mazmuni bloki sifatida ko'rib chiqildi. Keyinchalik, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi bilan u ta'lim mazmuni va uni o'zlashtirish texnologiyasi yuqori darajadagi yaxlitlik tizimiga birlashtirilgan maqsadli funksional birlik sifatida belgilana boshladi. Va nihoyat, zamonaviy ta'limni insonparvarlashtirish bilan bog'liq holda, modul nafaqat ma'lum miqdordagi ma'lumotlarga va uni o'zlashtirishning texnologik jarayoniga ega bo'lgan funksional birlik sifatida, balki talabalarning individual xususiyatlarini rivojlantirishga qaratilgan o'quv dasturi sifatida ham ko'rib chiqiladi. Modulni bunday tizimli tushunish uni modulli o'qitishning asosiy vositasi sifatida tavsiflash imkonini beradi, bu o'qituvchi va talabalar uchun maqsadli harakatlar dasturini va qo'yilgan didaktik maqsadlarga erishishni ta'minlaydigan uslubiy rahbarlikni o'z ichiga oladi.


Ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish texnologiyasining eng yuqori darajasi sifatida integrativ modulli o'qitish ta'limi deb belgilanadi. Integrativ modulli o'qitishdan foydalangan holda o'quv jarayonini loyihalash uning izchilligi va shaxsga yo'naltirilganligini ta'minlashga imkon beradi, chunki u ta'limni individuallashtirish g'oyalariga asoslanadi.

Bu bizga kamida ikkita muammoni hal qilish imkonini beradi: birinchidan, tizimli axborot muammosi va uning hajmining optimalligi; ikkinchidan, o'qituvchi va o'quvchi hamkorligiga asoslangan pedagogik texnologiyalarni qo'llash vazifasi. Integrativ modulli o'qitish paketining tarkibiy qismlari qat'iy belgilanmagan, bular: a) ma'lum bir intizomga qarab farq qilishi mumkin; b) ta'lim darajalari; v) talabalarning bilim darajasi, tayyorgarligi; g) o'qituvchining shaxsiy va kasbiy tajribasi.

Integrativ modulli o'qitishdan foydalanganda o'quv faoliyatini tashkil etish usuli o'rganishning tabiiy vositasi sifatida muloqotga asoslanadi va aloqa nisbatan to'liq ma'lumotni o'zlashtirishda o'qituvchi va talaba, ularning o'zaro bog'liqligi, o'zaro ta'siri jarayoni sifatida qaraladi.

Shunday qilib, integrativ modulli o'qitish, bizning nuqtai nazarimiz bo'yicha, ta'lim mazmunining nisbatan to'liq axborot uyg'unligini amalga oshirishda qo'llaniladigan integratsiya jarayonlari qonuniyatlari asosida o'rganishdir.

Integrativ modulli o'qitishni loyihalash sxemasi (texnologik va mantiqiy darajada) biz tomondan quyidagi komponentlar bilan ifodalanishi mumkin (1-rasmga qarang):



**1-rasm. Integrativ modulli o'qitishni loyihalash sxemasi (texnologik darajada)**

Ko'rinadiki, integrativ modulli o'qitish ta'limi – bu tizim bo'lib, uning muhim tomonlari va xususiyatlari uning qismlari xususiyatlariga ta'sirini o'tkazadi. Tizim tarkibiy qismlarga bo'linib ketganda, u o'zining muhim xususiyatlarini yo'qotadi. Shuning uchun ushbu texnologiyani bir butun sifatida ko'rib chiqish kerak. Sxemada ko'rsatilgan komponentlar bo'yicha uni tahlil qilish bizga faqat struktura, qurilma haqida ma'lumot beradi, ammo bularning barchasi qanday ishlashi va uni qanday boshqarish haqida tushuncha bermaydi.

Ushbu texnologiya uning umumiy yo'nalishini, maqsadlarini, mazmunini va tashkil etish usulini belgilaydigan tamoyillar tufayli uning umumiyligini aniqlaydigan tizim sifatida ishlaydi.

Tadqiqotimiz doirasida integrativ modulli o'qitishga metodik tayyorgarlik tushunchasini keng yoritish maqsadida respublikamiz olimlarining metodik tayyorgarlik tushunchasiga berilgan mualliflik ta'riflarini tahlil qildik:

I.Y.Raxmonov tayyorgarlik – ta'lim jarayoni va uning natijasi deb hisoblaydi va bunda o'qitish insonga ta'lim berish maqsadida (umumiy yoki bilimlarning biror

sohasida) yoki uning ma'lum kasbiy ixtisosni egallashi maqsadida amalga oshirilishi mumkinligini ta'kidlaydi.

M.I.Toshpo'latova o'z tadqiqot ishida metodik tayyorgarlikni takomillashtirish tizimiga quyidagicha ta'rif beradi: metodik tayyorgarlikni takomillashtirish tizimi – shaxsiy va kasbiy ahamiyatga molik xususiyatlar, shuningdek, umummadaniy (estetik, falsafiy, tarixiy), ilm-fanga oid (matematik, lisoniy, metodik), psixologik-pedagogik va kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standarti talablari asosida innovatsion pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotda foydalana olish metodikalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni o'z ichiga oluvchi murakkab dinamik tizim.

D.I.Yunusovanning fikricha – «o'qituvchining metodik tayyorgarligi – uzluksiz matematik tayyorgarlik jarayonida ta'lim oluvchilarning bu jarayonning faol subektiga aylantiruvchi pedagogik texnologiya, ta'lim metodlaridan unumli foydalanishdir».

Integrativ modulli o'qitish – murakkab pedagogik muammo bo'lib, u o'qitish jarayonida ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalarning birligi hamda o'zaro aloqadorligini aks ettiradi. Demak, integrativ modulli o'qitish, bizning nuqtai nazarimiz bo'yicha, ta'lim mazmunining nisbatan to'liq axborot majmualarini amalga oshirishda qo'llaniladigan integratsiya jarayonlari qonuniyatlari asosida o'rganishdir. U motivatsion va maqsadli komponentlarni, ta'lim texnologiyasini amalga oshirishning yetakchi tamoyillarini, o'quv mazmunini loyihalashning maxsus usullarini, didaktik materiallarni loyihalash bo'yicha topshiriq va mashqlar tizimini, shaxsiy ta'lim yutuqlarini nazorat qilish tizimini o'z ichiga oladi.


Oliy ta'lim muassasani tamomlashdan oldin, har bir talaba integrativ modulli ta'limning barcha tarkibiy qismlarini izchil modellashtirib, ongli ravishda mustaqil ravishda faoliyat olib borishi uchun sharoitlar yaratiladi. Bunda talaba mustaqil ravishda u yoki bu integrativ modulli dasturlarni modellashtirishi va uni kelgusidagi amaliy faoliyatida amalga oshirishi mumkin.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ modulli o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ modulli o'qitishga tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalari, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ modulli o'qitishga tayyorgarligini takomillashtirish modeli, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini integrativ modulli o'qitishga tayyorlash metodikasini takomillashtirish bayon qilingan.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, integrativ modulli faoliyatga tayyorlashda maqsad qo'yish va rejalashtirish ko'nikmalarini shakllantirishning bir necha bosqichlaridan foydalanish kerak: maqsadlarni belgilash va talabaning kelajakdagi faoliyatini rejalashtirish o'qituvchi (1-kursda) yordamida amalga oshiriladi; maqsadlarni belgilash o'qituvchi yordamida, kelgusi ishni rejalashtirish esa talaba tomonidan mustaqil ravishda (2-kursda) amalga oshiriladi; maqsadni belgilash va kelajakdagi ishni rejalashtirish o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan vazifa (3-kurs talabalari tomonidan amalga oshiriladi) doirasida talaba tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi; ish talabaning o'z tashabbusi bilan amalga oshiriladi; u o'qituvchining yordamisiz ishning mazmunini, maqsadini, rejasini o'zi belgilaydi va uni mustaqil ravishda bajarishga intiladi (4-kurs talabalari tomonidan amalga oshiriladi).

Integrativ modulli o'qitish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va maqsadni belgilash ko'nikmalarini shakllantirishning texnologik modelidan foydalanganda biz subektni o'rganishning samarali usullari, vositalari, shakllari va usullarining ma'lum darajada etishmasligini aniqladik. Biz mashg'ulotlarni amaliy yo'naltirish samaradorligini oshiradigan, tegishli ko'nikma va qobiliyatlarni shakllantirishga yordam beradigan o'qituvchi va o'quvchilarning faol usullari va harakatlaridan foydalaniladigan mashg'ulotlardan foydalanish kerak degan xulosaga keldik.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini integrativ modulli o'qitish rejimida kasbiy tayyorlash muammosini hal qilish kelajakdagi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining oliy ta'lim muassasasida integrativ modulli o'qitishni amalga oshirishga tayyorligini shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqishni talab qildi (2-rasmga qarang).



**2-rasm. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining integrativ modulli o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish shart-sharoitlari**

Xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, tadqiqot obekti sifatida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy va metodik tayyorgarligini takomillashtirish bilan bog‘liq masalalar umumiy kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning tarkibiy qismlarini ishlab chiqish muammosi sifatida tadqiq etilgan. Biz bo‘lajak o‘qituvchilarga qo‘yilayotgan zamonaviy malaka talablaridan kelib chiqib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini integrativ modulli o‘qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishning tarkibiy qismlarini ishlab chiqishda konseptual, loyihalash, maqsadli, operativ-faol, tashkiliy-uslubiy, nazorat va baholash, refleksiv kabi komponentlarini takomillashtirdik (2-jadvalga qarang).

### 1-jadval

#### Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini integrativ modulli o‘qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishning komponentlari


Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining integrativ modulli o‘qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish komponentlari	Faoliyat, harakatlar mazmuni
<b>Konseptual</b>	Davlat va jamiyat buyurtmasi hamda kasbiy ehtiyojlarni qondirish
<b>Loyihalash</b>	bo‘lajak o‘qituvchilarning individual xususiyatlari, kasbiy bilim darajasi va imkoniyatlarini rivojlantirish
<b>Maqsadli</b>	o‘quv materiallarini ijtimoiy buyurtma asosida shakllantirish, ularni integratsiyalash, raqobat muhitini shakllantirish
<b>Operativ-faol</b>	bo‘lajak o‘qituvchilarni metodik tayyorlash jarayonini individuallashtirish, differensiyalash va uzluksizligini ta‘minlash
<b>Tashkiliy-uslubiy</b>	bo‘lajak o‘qituvchilarni metodik tayyorlashni ta‘minlash va boshqarish texnologiyalari
<b>Nazorat va baholash</b>	nazorat, o‘z-o‘zini nazorat, o‘zaro nazorat, shaxsiy rivojlanish, o‘zini o‘zi rivojlantirish, qayta aloqa
<b>Refleksiv</b>	metodik tayyorlash subekti bo‘lgan bo‘lajak o‘qituvchining o‘zini o‘zi rivojlantirish jarayoni natijasida shakllangan ichki fazilatlar va malakalarini aks ettirish bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish natijalarini obektiv baholash va o‘z-o‘zini tahlil qilishning turli usullarini qo‘llash

Modulli dasturlarni tayyorlashning eng muhim sharti kompleks birikma, integratsiya va xususiy didaktik maqsadlar kombinatsiyasi hisoblanadi (bizning sxemamizda ular

o'rganilayotgan texnologiyaning maqsadli komponenti bilan ifodalanadi). Maqsadlar shunchalik aniq va ravshan belgilanishi kerakki, ularni amalga oshirish darajasi to'g'risida aniq xulosa chiqarish va ularga erishishni kafolatlaydigan ma'lum bir didaktik jarayonni qurish mumkin bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchi oldida uchlik – didaktik maqsadni aniq shakllantirishni ta'minlash bo'yicha muhim vazifa turibdi. Maqsadni belgilash tartibi bevosita boshlang'ich sinf o'qituvchilarning shaxsiy modeli va kasbiy faoliyati bilan bog'liq. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ modulli o'qitish rejimida kasbiy tayyorlash muammolarini hal qilish komponentlari ketma-ketligi aniqlandi.

Konseptual komponent integrativ modulli o'qitishni loyihalashning yetakchi tendensiyalari, umumiy uslubiy tamoyillari, qiymat yo'nalishlari va mexanizmlarini ochib beradi. Loyihalash komponenti integrativ modulli ta'limning optimal pedagogik modelini yaratish imkoniyatlarini ochib beradi. Maqsadli komponent integrativ modulli o'qitishning umumiy strategiyasini belgilaydi va murakkab, integratsiyalashgan va alohida didaktik maqsadlarni birlashtirish shartlarini ochib beradi. Integrativ modulli o'qitishning boshlang'ich sinf fanlar bo'yicha tarkibiy qismi ikki qismdan iborat: o'zgarmas va o'zgaruvchan. Integrativ modulli o'qitishning operativ-faol komponenti har bir modulning didaktik maqsadlariga erishishni ta'minlaydigan ta'lim texnologiyasi bilan ifodalanadi. Tashkiliy-uslubiy komponent integrativ modulli ta'lim rejimida invariant aniq va kasbiy ahamiyatga ega bilim, ko'nikma va ko'nikmalarni umumlashtirish, tizimlashtirish va integratsiyalash usullarini amalga oshirishni ta'minlaydi. Nazorat va baholash komponenti integrativ modulli o'qitish natijasida olingan boshlang'ich sinf fanlari ta'limi natijalarini baholash va tuzatish uchun mo'ljallangan. Refleksiv komponent shaxsiy kasbiy o'zini o'zi rivojlantirishni boshlash vositasi sifatida ishlaydi. Bo'lajak o'qituvchilarining o'quv jarayonida tadqiqot faoliyatini tashkil etishni tizimli yondashuv nuqtai nazaridan o'rganish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqotda tizimli yondashuv asosida sifatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ modulli o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish modeli va uni amalga oshirish uchun tashkiliy-pedagogik shartlar majmui aniqlandi (3-rasmga qarang). Ushbu modelni mohiyatini yoritishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ modulli o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish jarayoni maqsadli komponent, texnologik komponent, metodik komponent, jarayonli komponent hamda baholash mezonlarida o'z aksini topgan. Tashkiliy-tuzilmaviy modelning mazmuniy, konseptual-faoliyatli, integrativ-jarayonli komponentlari mazmuni integrativ modulli o'qitishni tashkil etishning butun mohiyatini belgilab beradi. Mazmuniy komponent. Model elementlarining strukturasi o'rganilayotgan jarayonning asosiy komponenti bo'lgan maqsad – bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining integrativ modulli o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishga yo'naltiradi. Ushbu maqsadni amalga oshirish albatta, o'zining meyoriy-huquqiy asosiga ega bo'lib, meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar doirasida zarur faoliyat amalga oshirib boriladi. Mazmuniy komponentda ijtimoiy zaruriyat sifatida belgilangan meyoriy-huquqiy asoslardan, o'quv reja, fan dasturlari, darsliklar, oliy ta'lim muassasasi sharoitida faoliyatni samarali tashkil etish orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining integrativ modulli o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirishga yo'naltiriladi.

**Maqsad:** Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ modulli o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish



**3-rasm. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ modulli o'qitishga tayyorgarligini takomillashtirish modeli**



bosqichma-bosqich nazorat va talabalarning mustaqil ishlarini uslubiy jihatdan malakali tashkil etish Mazkur modelda “Tabiiy-ilmiy va gumanitar fanlar” – “Umumkasbiy fanlar” – “Ixtisoslik fanlar” o‘quv bloklarini integratsiyalash orqali bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini integrativ modulli o‘qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish ko‘zda tutildi. Mazmuniy komponentda “Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish” moduli bilan “Geografiya o‘qitish metodikasi” va “Tabiatshunoslik o‘qitish metodikasi” modulini, “Oliy matematika” va “Boshlang‘ich matematika kursi nazariyasi” hamda “Masalalar yechish bo‘yicha praktikum” modullarini, “Jismoniy tarbiya va sport” hamda “Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi” modulini, “Ona tili” hamda “Ona tili o‘qitish metodikasi” modulini, “Falsafa” va “Umumiy pedagogika” hamda “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” modullari mazmunan tanlab olindi. Shuningdek, o‘quv bloklarida mavjud modullarni o‘zaro integratsiyalash ham nazarda tutildi (masalan, dissertatsiya doirasida “Ona tili o‘qitish metodikasi” va “Tabiatshunoslik o‘qitish metodikasi” modullarini integratsiyalab o‘qitish metodikasi ishlab chiqildi). Ularni tashkil qilish orqali o‘quv-bilish jarayonini samaradorlikka erishish nazarda tutilgan, bunda integratsiyaning turli darajalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ya’ni, mavzularni integratsiya asosida o‘quv materiallarini bayon qilishda oldingi o‘quv materialini keyingisini to‘ldiradi. Bunday integrativ yondashuv natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda ijodiy faoliyatlari muntazam ravishda rivojlanib, boyib boradi. O‘quv dasturlarida o‘zaro uyg‘unlashgan nuqtalarni vujudga keltirishga asoslangan integratsiya bunda dasturlarda mavzulararo uyg‘unlikni ta’minlashi muhim ahamiyatga ega. Konseptual-faoliyatli komponent. Integrativ modulli o‘qitish sharoitida boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirish va buni tashkiliy, metodik-texnik, psixologik-pedagogik shart-sharoit, kompetensiyaviy, integrativ, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, tamoyillar asosida uzluksiz, faoliyatli amalga oshiriladi. Bizning fikrimizcha, integrativ modulli o‘qitish jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillash-tirishdagi shart-sharoitlarga tashkiliy-shaxsiy, metodik-texnik va pedagogik-psixologik komponent asos bo‘ladi. Tashkiliy-shaxsiy shart-sharoitlarga bevosita, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi va ta’lim jarayonida integrativ modul mazmuniga daxldor tushunchalar talqin etiladi: ta’lim jarayonini tashkil etishda sifatli bilim berish va olishning keng imkoniyatlari; bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining integrativ modulli faoliyatini bevosita maktablar bilan hamkorlik qilish orqali tashkil etish; bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining integrativ modulli o‘qitish buyicha o‘zlashtirgan bilimi, ko‘nikmasi va malakasi.

Integrativ modulli o‘qitish sharoitidagi metodik-texnik shart-sharoitlar bevosita raqamli faoliyatga bog‘liq bo‘lib, uni bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi metodik tayyorgarlik jarayonida keng mazmunda kiritishni ifodalaydi: ta’lim jarayonini sifatli tashkil etishda moddiy-texnik, o‘quv-usuliy, elektron ta’lim resurslari bilan ta’minlash; bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining mustaqil ta’lim olishlari uchun keng imkoniyatlarini ishlab chiqish; integrativ modulli o‘qitish orqali bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining metodik bazasini takomillashtirish. Integrativ modulli o‘qitishning vositalaridan foydalanishning pedagogik va psixologik shart-sharoitlari bevosita bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining metodik tayyorgarligini

